



UDK: 902.2:903.3(575.144-235)

ORCID: 0009-0001-2602-2801

## TO‘Y, XALQ BAYRAMLARI VA SAYILLARNING QIZ BOLA TARBIYASIDAGI AHAMIYATI.

<https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.095>

*Bahridil Ergasheva G`olibjonovna*

*Tarix instituti tayanch doktoranti*

*bahridilergasheva5@gmail.com*

**Annotatsiya.** O‘zbek xalqining an’anaviy madaniyatida mahalla instituti qiz bola tarbiyasining asosiy ijtimoiy-pedagogik markazi hisoblanadi. Mazkur maqolada to‘y va nikoh marosimlari, Navro‘z bayrami, “Qizil gul”, “Lola sayli” kabi xalq bayramlari va sayillar orqali qiz bolalarning ijtimoiylashuvi, axloqiy tarbiyasi va jamoaviy me‘yorlarni o‘zlashtirish jarayonlari etnografik-antropologik jihatdan chuqur tadqiq etilgan. Nikoh to‘yi marosimlaridagi yosh kelinlarning o‘zbekona ibosi, qilayotgan xizmatlarining voyaga yetayotgan qizlarning tarbiyasidagi o‘rni, turli bayram va sayllarda o‘tkaziladigan tadbirlarning mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, sharqona tarbiyada ramzlarning ahamiyati ham muhim ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot bugungi axborot makonida o‘zbek xalqining o‘zligini saqlab qolishda milliy qadriyatlar, marosim, xalq bayramlari va sayllarning ahamiyati yuqori ekanini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** qiz bola, tarbiya, o‘tish marosimi, ro‘mol, ijtimoiylashuv, sayillar.

**Аннотация.** В традиционной культуре узбекского народа институт махалли считается основным социально-педагогическим центром воспитания девочек. В данной статье проводится глубокий этнографическо-антропологический анализ процессов социализации девочек, нравственного воспитания и усвоения ими общественных норм через свадебные и брачные ритуалы, праздник Навруз, а также народные праздники и сайли, такие как «Кызыл гуль» и «Лола сайли». Статья раскрывает важную роль скромного узбекского поведения молодых невест и оказываемых ими услуг во время свадебных церемоний в нравственном воспитании подрастающих девочек, а также сущность и воспитательное значение различных мероприятий, проводимых в ходе разных праздников и сайлей. Кроме того, подчеркивается особая значимость символов в восточном воспитании. Исследование демонстрирует исключительно высокую ценность национальных ценностей, традиционных обрядов, народных праздников и

сайлей в сохранении национальной идентичности узбекского народа в условиях современного информационного пространства и глобализации.

**Ключевые слова:** воспитание девочек, институт махалли, традиционные ритуалы, обряд перехода, символ ро‘мола, социализация, народные праздники и сайли.

**Abstract.** In the traditional culture of the Uzbek people, the mahalla institution is regarded as the primary socio-pedagogical centre for the upbringing of girls. This article provides a profound ethnographic-anthropological analysis of the processes of girls’ socialization, moral upbringing, and assimilation of communal norms through wedding and marriage rituals, the Navruz holiday, and folk festivals and fairs such as “Qizil Gul” and “Lola Sayli”. The article reveals the important role of young brides’ modest Uzbek behaviour and the services they render during wedding ceremonies in the moral upbringing of adolescent girls, as well as the essence and educational significance of various events held during different holidays and fairs. It also highlights the special importance of symbols in Eastern upbringing. The study demonstrates the exceptionally high value of national values, traditional rituals, folk holidays, and fairs in preserving the national identity of the Uzbek people in today’s information age and globalized world.

**Keywords:** girl child upbringing, mahalla institution, traditional rituals, rite of passage, ro‘mol symbol, socialization, folk festivals and fairs.

**KIRISH.** To‘y marosimlar, xalq bayramlari va sayillar muayyan xalqning ma`naviy-madaniy tizimini, o‘ziga xosligini hamda an`anaviy xilma-xilligini ifodalash bilan birga, ularni amalga oshirish orqali jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va tarbiyaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan vazifalarni ham bajaradi. Bunday ommaviy tadbirlar jarayonida yosh avlod kattalarga hurmat, o‘zaro mehr-oqibat va mehmondo‘stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni bevosita kuzatish orqali o‘zlashtirib boradi. Shu boisdan ham, asrlar sinovidan o‘tgan bu an`nalar o‘sib kelayotgan qizlarni milliy ruhda kamol toptirishda hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy mas`uliyatini shakllantirishda muhim hayot maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

An`anaviy to‘y-marosimlarda xizmat qilish vazifasi odatda mahallaning yosh kelin va qizlari zimmasiga yuklanib, bu shunchaki yumushlarga ko‘mak emas, balki ayna shu amaliy jarayon orqali milliy qadriyatlar, mehnatsevarlik mehmondo‘stlik, fazilatlari yoshlar ongiga singdirib borilgan. Shu bilan birgalikda to‘y-tomoshalarda yoshlarning ishtiroki mazmun va jo‘shqinlik bilan ta`minlagan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Marosimlarning ijtimoiy tarbiya va shaxsning ijtimoiylashuvidagi o‘rni etnologiya fanida keng tadqiq etilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida nazariy asoslarini ko‘rish mumkin. V.Turner o‘zining “The ritual process: Structure and antistructure” asarida marosimlarning ramziy o‘tish vazifasini bajarishdagi rolini ochib bergan. Uning fikricha, marosimlar jamoaviy axloqiy qoidalarni ijtimoiy saxnada namoyon bo‘lish jarayonidir [2.112]. E. Goffman esa “The Presentation of Self in Everyday Life” asarida “ijtimoiy qiyofa

tuzilishi” nazariyasini ilgari surib, har bir shaxs jamoa oldida ma’lum bir rol o‘ynashi va uning xulq-atvori, kiyinishi hamda o‘zini tutishi jamoa tomonidan doimiy baholanib turishini ko‘rsatgan [1.23]. Mazkur nazariyalar o‘zbek an’anaviy marosimlarini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

To‘y-marosimlar, xalq bayramlari va sayillar masalasi I.Jalilovning “O‘zbek xalqi an’anaviy bayramlari, sayllari va o‘yinlari” fundamental tadqiqotida batafsil yoritilgan. Muallif Navro‘z, “Qizil gul” sayli, halinchak, sumalak pishirish kabi marosimlarning tarkibi, ishtirokchilarining gender rollari va tarbiyaviy ahamiyatini batafsil tavsiflab, ularning xalqni birlashtirish va yosh avlodni mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik hamda nazokatga o‘rgatishdagi rolini ko‘rsatgan [3.23–27]. M. Jo‘raev va M. Narziqulovaning “Mif, folklor va adabiyot” asarida esa Xorazm viloyatidagi “Qizil gul” saylining o‘ziga xos xususiyatlari va unda qizlarning ishtiroki ramziy jihatdan tahlil qilingan [3.23–27]. Shuningdek, Sh. Turdimovning “Xalq qo‘shiqdarida ramz” nomli monografiyasida ro‘molning o‘zbek madaniyatidagi ko‘p qirrali ma‘nolari sevgi izhori, tush ta‘biri, ro‘mol to‘yi esa voyaga yetish belgisi sifatidagi o‘rni chuqur ochib berilgan [5.31–32].

2024–2025 yillarda Navoiy, Nurota, Andijon va Navoiy viloyatlarida olib borgan ilmiy tadqiqotlarda to‘y marosimlarida qizlarning salom berishi, kiyinish madaniyati, o‘yinlar va ayollar davrasidagi baholash tizimlari haqida jonli empirik ma‘lumotlarni taqdim etadi. Ushbu kuzatuvlar an’anaviy marosimlarning bugungi kunda ham mahalla darajasida faol ijtimoiy nazorat va tarbiyaviy vosita sifatida saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqot etnografik yondoshuv asosida olib borilib, asosiy ko‘zlangan maqsad, o‘zbek xalqining an’anaviy marosimlari, to‘y, Navro‘z bayrami va turli sayllar orqali qizlarning ijtimoiylashuv jarayoni va tarbiyaviy ahamiyati o‘rganildi. Buning uchun tarixiy manba, adabiyotlarga tayangan holda, nazariy ma‘lumotlar, empirik ma‘lumotlar bilan qiyosiy tahlil etilib, bevosita kuzatuvga asoslandi.

**NATIJAR VA MUHOKAMA.** Marosimlar qaysidir amalni bajarish bilan birga, jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy nazorat va sinov maydoni vazifasini ham o‘taydi. Bunday marosimlarda katta jamoa yig‘ilgani sababli, yosh kelin va qizlarning chaqqonligi, mehnatkashligi, odob-axloqi ham ko‘rikdan o‘tkaziladi. Bu o‘rinda yozilmagan ammo, qat‘iy qonunlar ishga tushib, ularning kiyinish madaniyati, xatti-harakati, gapirishi, o‘zini tutishi jamoa tomonidan baholanadi.

Marosimlar orqali har bir shaxs, ayniqsa qiz bolalar, jamoa me‘yorlarini kuzatish, ishtirok etish va ularni hayot tarziga singdirish orqali ijtimoiylashadi [2.112]. To‘y o‘zbek madaniyatidagi eng muhim jamoaviy marosimlardan biri. U faqat nikoh tuyg‘usi emas, balki axloqiy qoidalarning ijtimoiy sahnada namoyon bo‘lish jarayonidir.

Qizlar uchun to‘y – bu ijtimoiy sinov. Ular bu tadbirda “uyat”, “odob”, “ijtimoiy mas‘uliyat” tushunchalarini amalda his qiladilar. Bu jarayon antropolog V.Turner ta‘biri bilan aytganda, “ramziy o‘tish marosimi” hisoblanadi ya‘ni qiz bola bolalikdan katta hayotga qadam qo‘yadi [2.97]. Garchi ushbu jarayonda birgina qiz turmushga chiqib, hayotini yangi

xonadonda davom ettirsada, to‘y davomida har bir bajariladigan marosimlar qizlarda qiziqish va xavas uyg‘otadi. Salom berish tartibi, qadam tashlashi, jilmayib turishi kabi kabi har bir jihatga qiziqish bilan qaraydi. Ayollar orasida “*Kulib, egilib salom berdi. Tarbiyali ekan*” kabi gaplar yosh qizlar uchun jamoa qadriyatlarini vizual ravishda qabul qilishning aniq shakli hisoblanadi.

To‘yga kirib kelgan turli yoshdagi qizlarning ko‘rinishi ayollar davrasida darhol baholanadi. Bu gaplar nazorat emasdek ko‘rinsa ham, aslida qiz ongiga juda kuchli ijtimoiy signaldir. U qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan chegaralarni belgilaydi, kiyinish orqali o‘zbek qizi qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi tasavvurni mustahkamlaydi [7]. Mahallalarda ko‘pincha yosh qizlar dasturxon yozish, choy uzatish, mehmon kutish kabi vazifalarda faol bo‘ladi. Bu jarayon davomida kattalar ularni kuzatib boradi. Bu nafaqat mehnatni, balki tabassum bilan xizmat, muloyimlik va ijtimoiy masofa kabi ko‘nikmalarni singdiradi va bu to‘y ijtimoiy maktabga aylanganining yorqin belgisi.

Tadbir davomida qizlar kattalar yonida sokin, nazokatli o‘tirish, qo‘l-oyoqlarni tartibli tutish, baland kulmaslik, muloyim gapirish kabi me‘yorlarni bevosita kuzatish orqali o‘zlashtiradi. Bu jarayon norasmiy ta‘lim mexanizmi bo‘lib, estetika va odob me‘yorlarini ko‘rib, eshitib, ichki qabul qilish yo‘li bilan singadi. Marosim tugaganda esa ayollar davrasida qizlarning tutumi umumiy muhokama qilinib baholanadi [7] odobli, iboli, chaqqon deb e‘tirof etilgan qiz ijtimoiy rag‘batga ega bo‘ladi, haddan oshgan yoki mos kelmaydigan ko‘rinishda bo‘lgan qizlar esa jiddiy tanqidlarga uchraydi. Natijada to‘y nafaqat tantana, balki qizlar ongida uzoq saqlanadigan axloqiy mezonlarni mustahkamlovchi ijtimoiy maktab sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Xalq bayramlarining vazifasi ham xalqni birlashtirishdan tashqari har bir yoshning ijtimoiy vazifalarga o‘rgatuvchi muhim jarayon hisoblanadi. Misol uchun Navro‘z bayramini olsak. Bu bayramda yoshu-keksaning o‘z o‘rni va vazifasi bo‘lib, erkaklar o‘choq kavlab, o‘tin tayyorlasa, ayollar turli taom va shirinliklar tayyorlashgan. Ushbu jarayonda qiz va kelinlarning o‘rni alohida bo‘lib, tuni bilan uxlamay bayramga atab, ko‘katli va go‘shkli somsalar, sutli kulcha, patir, non, shirinliklar va boshqa pishiriqlar tayyorlashadi [3.11]. Navro‘z bayrami tantanalari tuni bilan davom etib, olov yoqilib, qo‘shiqlar aytib, o‘yin-kulgu qilishgan. Ularda yosh yigit-qizlarning ishtiroki sezilarli bo‘lib, ular o‘rtasida lapar aytish, ayniqsa qiziqarli o‘tgan [3.11]. Bu orqali qizlarda she‘riyatga, musiqaga qiziqish uyg‘onib, estetik didlari shakllanishiga sabab bo‘ladi. Misol uchun bahor ayyomlarida halinchak aytganda aytiladigan qo‘shiqni matniga e‘tibor berish kerak.

Halinchagim halinchak,

Oyxol xolam kelinchak,

Ha-yu-vo, ha-yu-vo.

Halinchagim halinchak,

O‘g‘ir bo‘pti (xomilador) kelinchak,

Ha-yu-vo, ha-yu-vo. [3.17].

Ushbu aytim shunchaki folklor namunasi emas, balki qizlarni ayollik va onalik maqomiga ruhiy jihatdan tayyorlovchi, o‘ziga xos tarbiya vositasidir. Shuningdek bu kabi marosimlarda yosh qizchalarning do‘ppisi yoki kiyimlariga maysa gullar taqishib, kelgusi yil sumalak yana pishirilgunicha shu go‘dak sog‘-salomat bo‘lsin deb duo qilganlar [3.23]. Bu qizchalarda shu jamoaga daxldorlik hissini shakllanishiga, qadr tushunchasini ortishiga va keljakda sog‘lom o‘ziga ishongan shaxs bo‘lib yetishishiga poydevor vazifasini bajargan.

Navro‘z bayrami bilan aloqador mayramlari safiga kiruvchi, ekin-tikinlik va hosildorlik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan “Qizil gul” saylida barcha barobar qatnashib, atrof tozalangan va turli taomlar pishirilgan. Yigitlar o‘z sevgan qizlariga qizil gul, olma, anor, gul tutishgan [3.24]. Xorazmda ham ushbu sayl o‘zgacha kutib olinib, sayl boshlanishidan oldin, xotin-qizlar tomlar ustiga chiqib o‘tirishgan va sayl boshlanishi bilanoq yigitlar qizlarga qarab, har hil rangda pishirilgan tuxum, olma, anor otganlar. Suygan qizlariga esa shirinlik, mayiz, xolva tuxfa etganlar. Bu odatda yosh bolalar orqali yetkazilgan bo‘lib, o‘z o‘rnida qizlar ham yigitlarni ana shunday sovg‘alar bilan siylashgan [4.74]. Sevgi va muhabbatning ramzi bo‘lgan ushbu gul, olma, anor kabi mevalar hislarning yashirin tarzda ifodalash uchun xizmat qilgan bo‘lib, bu orqali hislarni jilovlashga va jamiyatning axloqiy qoidalarini hurmat qilishga o‘rgatilgan.

Bunday ommaviy tadbirlar kishilarning nafaqat madaniy hordiq chiqarishi va ona tabiatni qadrlashini ta‘minlagan, balki asrlar osha shakllangan milliy-ma‘naviy merosimizni avloddan-avlodga uzluksiz yetkazishdagi o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tagan. Dalalarda qizg‘aldoqlar qiyg‘os ochilganda tevarak atrofdagi qishloq qizlari tepaliklarga chiqib, doira sadolari jo‘rligida dugonalari bilan birga qo‘shiq kuylab raqsga tushishgan. Lolaqizg‘aldoqlardan terib, turli gullardan boshlariga gulchambar yasab ta‘qib, xursandchilik qilib uylariga qaytishgan [1.27]. To‘y bazmlarda ham huddi shunday to‘planishib, ko‘zlariga surma, o‘sma qo‘yishgan va sochlariga jamalaklar qadash odat bo‘lgan.

Bunday marosimlarda qizlar “namoyon bo‘luvchi” va “o‘rganuvchi” sub‘ekt sifatida qatnashadi. Ular o‘zini ko‘rsatish, ijtimoiy mavqe yaratish bilan birga, jamoa tomonidan qo‘llanilayotgan me‘yor va qadriyatlarga moslashishni ham o‘rganadi. Antropologik tahlilda bu jarayon E.Goffman ta‘riflagan “ijtimoiy qiyofa tuzilishi [1.23]”ga mos keladi, ya‘ni jamiyat har bir ishtirokchi uchun ma‘lum rol belgilab beradi va shu rol doirasida shaxsning xulqi baholanadi.

Shunday sayillarda bo‘yiga yetgan qizlar orasida qizlar voyaga yetganini aniqlovchi alohida o‘yinlar ham mavjud bo‘lgan bo‘lib, bu o‘yin “ro‘molni ol” deb atalib, unda bo‘yi yetgan qizlar ishtirok etgan bo‘lib, doira shaklida joylashib o‘tiradilar. Qizlardan biri bitta ro‘mol olib, qizlardan iborat doirani aylanib, ulardan biriga ro‘molni tashlab ketadi. Ro‘mol tashlangan qizni quvlab, yetib olishga harakat qiladi [7]. Ushbu o‘yinda qizlardan epchillik va chaqqonlikni talab qiladi. Avvalo ro‘molni tashlanganini sezishi va o‘zining epchilligini namoyon etishi kerak. Ushbu holatda qizlarning voyaga yetgani va turmushga tayyor ekanini sezish mumkin.

Xalqimiz orasida tush ta'birida ham ro'mol ahamiyatga ega bo'lib, agar qiz bola tushida ro'mol o'rasa tez orada turmushga chiqishi xabari hisoblanadi [5.32]. Qizlarning sevgi izxori sifatida ham aynan ro'mol yoki ro'molcha asosiy ramziy belgi hisoblanadi [6]. Bu qizlarning o'z ko'nglini yigitga berganini va u bilan kelajak hayotini birga qurmoqchi ekanini bildiradi. O'zbek qizlari uchun sharm-hayo qadimdan birinchi o'rinda turgan bo'lib, o'zbek qizlarining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi va ular qalbidagi so'zlarini turli ramzlar orqali bildirganlar.

Shuningdek, qiz va yigitning unashtirilgani xalqqa ma'lum qilish maqsadida "ro'mol to'yi" o'tkaziladi. O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida "ro'mol to'yi" nikoh to'yi marosimlari tizimining tayanch bo'g'inlaridan hisoblanadi [5.31]. Qizlarning unashtirilganligini ramzi sifatida oq ro'mol o'raladi.

"Ro'mol" atrofida shakllangan o'yin, marosim va ramziy amallar o'zbek madaniyatida qizning voyaga yetishi, mehr-muhabbat, unashtirish va nikohga tayyorlik bilan bog'liq ijtimoiy ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi. "Ro'molni ol" o'yini jismoniy epchillik orqali emas, balki qizning ijtimoiy tayyorgarligi va jamoa nigohi ostida sinovdan o'tishi orqali ahamiyat kasb etadi va bu jarayon butun jamoa kuzatuv, bahosi va ishtiroki bilan amalga oshadi. Xuddi shunday, ro'molning sevgi izxori, tush ta'biri, "ro'mol to'yi" kabi marosimlarda ham bir qizning xususiy hayoti jamoaga e'lon qilinadi va jamiyat tomonidan tasdiqlanadi. Demak, ro'mol shaxsiy hisning ramzi bo'lsa-da, uning taqdirini belgilovchi kuch jamoaning tan olishi, ma'qullashi va marosim orqali tasdiqlashidir. Shu ma'noda, bu urf-odatlar qizning voyaga yetishi shaxsiy bosqich emas, balki jamoaviy tan olinadigan ijtimoiy o'tish marosimi ekanini ko'rsatadi.

Ushbu urf-odatlar ertak va dostonlarda ham o'z badiiy ifodasini topgan. "Alpomish" dostonida Qalmoq yurtiga ko'chib borgan Boy-sarini ko'rib kelish uchun borayotgan Surxayl kampirdan, Qorajon yo'l bo'lsin, deb so'raganida, Surxayl kampir:

Xudoyim saqlagay bandani omon,  
Turib o'yla, yaxshi yo'lga boraman,  
O'zbeklarga seni kuyov qilaman,  
O'zbeklarning yaxshi qizi bor bo'lsa,  
Atashtirib ro'mol berib kelaman...  
Yaxshi qizlar agar boshi bo'sh bo'lsa,  
Kelin qilib biror ro'mol o'rayin,  
Borishli-kelishli bo'lib yurayin,  
Bolalarni tog'a-jiyan qilayin,

Demak, sayillar qizlarning jamoadagi o'rni qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatib beradigan, ularni nazokat, hayo, muloyimlik, madaniy moslashuv kabi fazilatlarga yo'naltiradigan ijtimoiy tarbiya sahnasiga aylanadi. Marosim tugaydi, lekin undagi tajriba qizlarning ongida ijtimoiy mezon sifatida mustahkamlanib qoladi.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek oilalarida qiz bola tarbiyasi asrlar davomida oila, mahalla va jamoaning uzviy hamkorligiga asoslangan holda

shakllanganini ko‘rsatadi. To‘y marosimlari, bayramlar, mavsumiy sayillar qiz bola tarbiyasida shunchaki madaniy hordiq yoki ommaviy xursandchilik vositasi bo‘lgina qolmay, balki ularni jamoa hayotiga tayyorlovchi, milliy qadriyatlarni vizual va amaliy tarzda singdiruvchi muhim ijtimoiy-pedagogik tizim hisoblanadi. Shuningdek, marosimlar, qizlarning hayotida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tkazuvchi hisoblanib, umda qizlarning muomila madaniyati, mehnatsevarligi, odob-axloqi jamoa tomonidan kuzatuv ostiga olinib, baho beriladi. Bu qiz bola tarbiyasi faqatgina oilaviy emas, balki jamoa ishtirokida amalga oshiriladigan muhit asosida shakllanishini tasdiqlaydi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Goffman, E. *The Presentation of Self in Everyday Life*. New York: Doubleday. 1959). p. 23.
2. Turner, V. *The Ritual Process: Structure and Anti-Structure*. Chicago: Aldine. 1969. p. 112.
3. И.Жалилов. Ўзбек халқи анъанавий байрамлари, сайллари ва ўйинлари. Қарши. Насаф. 2005. 54 Б.
4. М.Жўраев, М.Нарзикулова. Миф, фолклор ва адабиёт. Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. 2006. 184 Б.
5. Ш.Турдимов. Халқ кўшиқларида рамз. Тошкент. 2020. 192 Б.
6. Dala yozuvlari. Andijon. 2024.
7. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati. 2025.